
Farg'onada Tojikiston bilan turizmni rivojlantirish bo'yicha yangi shartnoma imzolandi

27 aprel kuni Tojikistonning sayyohlik kompaniyalaridan iborat delegatsiyasi Farg'ona viloyatiga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida turizm sohasining xorijiy vakillari mintaqaning sayyohlik salohiyati bilan tanishdilar. Xususan, Qo'qonning tarixiy obidalari, jumladan, Xudoyorxon saroyi va Jomiy masjidi, Marg'ilonning Pir Siddiq majmuasi, Said Ahmadxo'ja madrasasi, "Yodgorlik" ipak fabrikasi va Rishtondagi Said Ahmedovning kulolchilik ustaxonasi bilan tanishdilar.

Shuningdek, Farg'ona hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmasida delegatsiyasi mahalliy sayyohlik kompaniyalari bilan uchrashish imkoniga ega bo'ldi. Uchrashuv yakunida «Farg'ona vodiy Sayyoh», «Dilkam MK», «Al-Fergani Tur» kabi firmalar "Marko Polo" kompaniyasi bilan o'zaro manfaatli shartnomalar tuzdilar.

Kamila Mo'minova

2018-04-28 18:50:24